

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIATSHUNOSLIK-GEOGRAFIYA FAKUL'TETI

"BOTANIKA" KAFEDRASI
3-kurs talabasi Xidirova Ziboning

Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar

.

KURS ISHI

Mavzu: Muloqot treningni utkazish bosqichlari va
uni dars jarayoniga tadbiq etish

Bajardi: Z.Xidirova

Qabulladi: F.Otenova

Kafedra boshlig'i: M.Baltabaev

Nukus – 2014 y

M U N D A R I J A

	Kirish.....	
1.	Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan interfaol usullar	
2.	Asosiy bulim. Muloqot treningni utkazish bosqichlari va uni dars jarayoniga tadbiq etish.....	
2.1.	Suhbat metodi	
2.2	Munozara (muhokama) usuli	
2.3	Didaktik o`yin texnologiyalari. Matbuot konferentsiyasi talim texnologiyasi	
	Xulosa.....	
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	

KIRISH

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'la ro'yobga chiqsa, ijobiy ravishda «portlash effekti» sodir bo'lishini bashorat qilib, «Tafakkur» jurnalining bosh muharriri savollariga bergan javobida: «ishonchim komil, agar bu islohotni amalga oshirsak tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni uning samaradorligiga erishamiz », - deb ta'kidlaydi.

Interfaollik deganda o'quvchining o'quvchi bilan hamkorlikda yoki komp'yuter bilan muloqoti o'zaro ta'sir ko'rsatish rejimida ishlashi tushuniladi.

Interfaol o'qitish – bu avvalo dialog tarzda o'qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir.

Interfaol o'qitishning asosiy mohiyati – o'qitish jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo'llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.

O'quv materialini o'rganish, muammoni hal etish bo'yicha turli variantdagi echimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o'quvchilarning hamkorligi har bir o'quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o'z ulushini qo'shishga, ular o'rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o'zaro yordam muhitida sodir

bo'lganligi uchun, o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko'tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o'quvchining ustunlik qilishi, uning o'z fikrini o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

Interfaol usullar qo'llanilganida o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallaydi.

O'qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- Insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo'lgan muloqot – o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.
- O'qitish jarayonida o'quvchilarga o'z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi.
- O'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi.
- O'quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari etarli emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo'lishiga erishish lozimligini anglaydilar.
- O'quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo'yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to'g'riligini tekshirib ko'rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishishlari lozim.

1. Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan interfaol usullar.

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni aqliy qobiliyatlarini o'zlashtirish, fizika fanini o'qitishdagi eng muhim psixologik va pedagogik muammo. Buning uchun o'qitishning faol metodlaridan, ta'lim va tarbiyaning noan'anaviy shakl va usullaridan keng miqyosida foydalanish, jism va hodisalarning ularning o'zaro aloqadorligi, harakati va rivojlanib borishi asosida o'rganish taqazo etiladi.

Bunda, ayniqsa, o'quvchilarning o'yin faolligini oshirish, yangi bilimlarni o'zlashtirishi, ularda o'quv va ko'nikmalarini shakllantirishi hamda rivojlantirishi, umuman fizikani o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishi katta ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobiy his-hayajon tuyg'usi ularni charchashdan asraydi. Ularning intellektual qobiliyatini oshiradi.

Ta'limning faolligi – ta'lim oluvchilarning faolligini tashkillashtirishni ta'minlab beruvchi ta'lim.

Ta'limning faol usullari – ta'lim oluvchilarning bilim orttirish faoliyatini kuchaytirish usullari. Asosan u yoki bu muammoni echish yo'llarini izlashda taxminiy erkin fikr almashinish dialogi asosida quriladi.

Innovasiya texnologiyalari o'qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini ko'tarish, o'qituvchi-pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglar (texnologiyalarga)ga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsifnoma berib o'tamiz:

«TARMOQLAR» metodi - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3x4» metodi - o'quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

«BLIS-O'YIN» metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«INTYERVYu» texnikasi - o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«IYERARXIYa» texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«BUMYERANG» texnikasi - o'quvchi-talabalarni dars jarayonida , darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«TALABA» treningi - o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan,

«O'QITUVChI ShAXSI» treningi – o'qituvchining innovasion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«MULOQOT» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«BOShQARUV» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

2.Asosiy bulim.

2.1. Muloqot treningni utkazish bosqichlari va uni dars jarayoniga tadbqiq etish

Biologiya o`qituvchisi o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma`lum bosqichida lokal` (modul) darajada qo`llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o`rganilib, o`quvchilarning o`zlashtirgan bilim, ko`nikma malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o`yin mashqlar, musobaqa, trening o`tkazadi. O`quvchilarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko`nikma va malakalarni egallagandan so`ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni o`tkazishi, ya`ni xususiy metodik darajada qo`llashi mumkin.

Xususiy metodik darajada darsning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o`qituvchi o`rganiladigan mavzuning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari, darsda o`quvchilarning bilishi lozim bo`lgan o`quv topshiriqlari, o`quvchilarning o`zlashtirgan bilimni nazorat qilish va baholash yo`llarini belgilashi lozim.

2.1. Suhbat metodi

O`quv materialini jonli, ob`ektlarga xos xususiyatlarni bayon qilish, axborotning ilmiyligi, izchilligi, tushunarililigi, nutqning ravonligi va ifodaliligi uslubi.

Suhbat metodi o`qituvchining o`quvchilar tomonidan yangi mavzu mazmunidagi qonuniyat, tushuncha va atamalarning izchillikda faol o`zlashtirishini ta`minlovchi puxta o`ylangan savollar vositasida ishlashini nazarda tutadi. Suhbat metodi yordamida o`quvchilarning avval o`zlashtirgan bilim va ko`nikmalari faollashtiriladi, tizimga solinadi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi va yangi o`rganilayotgan tushuncha bilan o`zaro aloqadorligi yoritiladi. Shuni qayd etish kerakki, o`quvchilarning avval o`zlashtirgan bilimlari asosida yangi mavzuni

savollar yordamida o`zlashtirish imkonini beradigan mavzular suhbat metodi vositasida o`rganish tavsiya etiladi. Suhbat metodi o`quvchilarning nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonini engillatish, o`quvchilarning avval o`zlashtirgan bilim va ko`nikmalari, hayotiy tajribalaridan foydalanib, qator savollar yordamida yangi bilimlarni o`zlashtirish, mazkur bilimlardan amaliyotga qo`llashni anglab olishiga zamin tayyorlashni ko`zda tutadi.

O`quv materialining murakkablik darajasi o`rtacha bo`lib, mavzu mazmunini mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, mazkur qismlar bo`yicha savollar tuzish imkoni bo`lgan, o`quvchilarning dastlabki bilimlari etarli darajada, ular suhbat davomida o`z fikrlarini aytishlari, asoslashlari va shu bilan bir qatorda yangi bilimlarni shunchaki eslab qolmasdan, balki mustaqil idrok etishlari, faol egallashlari mumkin bo`lgan hollarda suhbat metodidan foydalaniladi.

Suhbat metodi o`quvchilarning nazariy bilimlarni o`zlashtirish uchungina emas, balki ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikr yuritish ko`nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi.

Suhbat metodining samaradorligi o`qituvchining mavzu mazmunni mantiqiy tugallangan qismlarga ajratish, har bir qism bo`yicha savollar zanjirini tuzish, dars davomida mazkur savollardan o`z o`rnida foydalanish, sinf o`quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish va savollarga javob topishga yo`llashi, har bir o`quvchining rag`batlantirishi, o`quvchilarning esa o`z fikrini lo`nda va qisqa bayon etish, dalillash ko`nikmalarini egallaganlik darajasiga bog`liq bo`ladi.

Mazkur metod tarkibiga suhbat savollarini ketma-ketlikda qo`yish, yordamchi va qo`shimcha savollarni o`z vaqtida berish, o`quvchilarni faollashtirish, o`quvchilar javobidagi xatolarni to`g`rilash, xulosa va umumlashtirishni tarkib toptirish uslublari kiradi.

Og`zaki-ko`rgazmali yondashuv. U an'anaviy bo`lib, asosan o`qituvchining axborot berishi, o`quvchi-talabalarining bilimini qabul qilishi, to`plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan

axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'riladi. Bu tizimdagi bilimlar asosan, esda saqlab qolish natijasi, ko'pincha rasmiy ma'lumotdir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan bo'ladi yoki boshqa so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol qo'yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba'zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv respublikamiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan. Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasiga bog'liq bo'lmagan holda, bevosita berish mumkin bo'lgan imkoniyatidan kelib chiqadi. Demak, shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi – zaruriy axborotni ma'lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

V.Guzeyevning ta'kidlashicha, an'anaviy metodikaga xos bo'lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini «o'zlashtirish» tushunchasi qobig'iga o'ralgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg'or o'qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda.

O'qitishning og'zaki bayon metodlari guruhi. O'qitish jarayonida og'zaki metodlardan doimo va muntazam foydalanib kelingan. Bu metodlar metodlar ichida ustunlik qilgan davrlar ham bo'lgan. Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim tizimida og'zaki metodlar ustunlik qiladi. Keyingi yillarda og'zaki metodlarni tanqid qilish, ularni o'quvchilar faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatmaydigan metodlarga

kiritish odat tusiga aylangan. Metodlarga baho berishda xolisonalo yondashish zarur, uning ahamiyatini mutlaqlashtirish, bo`rttirib ko`rsatish mumkin emas, shuningdek, pasaytirishga ham yo`l qo`yib bo`lmaydi.

O`qitishning og`zaki bayon metodlari qo`llanilganda o`qituvchining so`zi o`quvchilarning bilim olishlari uchun asosiy manba hisoblanadi, ya`ni o`qituvchi o`quvchilarga so`zlar vositasida bilim beradi, o`quvchilar faoliyatini eshitish, fikr yuritish, berilgan savollarga javob topishga yo`naltiradi. Shuning uchun o`qituvchining so`zi oddiy axborot bo`lmasdan, balki ishonchli, asoslovchi, o`quvchilarning faoliyatini faollashtiruvchi ta`sir kuchiga ega bo`lishi kerak.

O`qituvchining yorqin, hissiyotli, dalillarga asoslangan, mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan, ko`rgazmali hikoya, suhbat, ma`ruzalari hozir ham o`z qimmatini yo`qotmagan. Og`zaki metodlar qisqa muddatda katta hajmdagi o`quv materialini o`quvchilar ongiga etkazish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni hal etish yo`llarini ko`rsatish, o`quvchilarning nutqini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shuningdek, ko`pchilik metodlar o`qitish jarayonida og`zaki metodlar bilan uyg`unlashtirilgan holda qo`llaniladi. Og`zaki metodlarning muvaffaqiyatli qo`llanilishi, o`qituvchining:

- nutq madaniyatini egallaganlik, jumladan, nutqning ravonligi, ovoz kuchi, intonatsiya, axborotlarning obrazlilik, ishonchlilik, asoslovchi, isbotlovchi, emotsiyali, shaxsiy munosabat bilan yo`g`rilganlik darajasiga;

- axborot texnologiyalari asosida yaratilgan elektron darsliklarda ovoz, animatsiya, harakatlarning uyg`unlik darajasiga bog`liq bo`ladi. Og`zaki bayon metodlari guruhi o`z ichiga suhbat, hikoya, ma`ruza metodlarini oladi. Hikoya metodi o`quvchilarga o`quv materialini yaxlit holda savollar berib, uzmasdan bayon etishni nazarda tutadi. Yangi mavzu mazmunida yangi tushunchalar, ilmiy axborot ko`p bo`lgan taqdirda, shuningdek, o`qituvchi o`quv materiali yuzasidan faol suhbat o`tkazish imkoni bo`lmagan, izohlash va tushuntirishi lozim bo`lgan, o`quv materialining hajmi katta bo`lib, uni dasturda belgilangan vaqtda o`rganish zarur bo`lgan hollarda hikoya metodidan foydalanadi. Hikoya metodidan darsning

qaysi bosqichida foydalanishiga ko'ra hikoya metodining didaktik maqsadi turlicha bo'ladi.

Darsning kirish qismida foydalaniladigan hikoya metodi o'quvchilarning yangi mavzu mazmunini idrok qilishga tayyorlash sanaladi. Mazkur jarayonda hikoya metodi mazmun jihatdan o'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirish, barqaror qiziqishni uyg'otish, dars davomida bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlarining maqsadini anglashni ta'minlashga qaratiladi.

Yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalaniladigan hikoya metodi mazmun jihatdan yangi mavzu mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda, izchillikda rivojlantirilib boriladi, asosiy tushuncha va atamalar alohida ta'kidlanib, ko'rgazmali vositalari va ishonarli misollar foydalanilgan holda bayon etiladi.

Darsning yakunlash qismida foydalanilgan hikoya metodida o'qituvchi o'rganilgan mavzu mazmuni yuzasidan asosiy fikrlarni umulashtiradi, yakunlaydi, xulosa chiqaradi, o'quvchilarga mustaqil ish topshiriqlarini tavsiya etadi.

O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan hikoya metodi o'quvchilarning muayyan mavzularni hikoya qilishini taqozo etadi. O'quvchilarning hikoyalari ularning ilmiy dunyoqarashi, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. Bunda o'quvchilar yangi mavzu mazmunidagi asosiy g'oyani ajratish, o'z fikrini asoslash va dalillash, qisqa va lo'nda, mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, ko'nikmalarini egallaydi.

Hikoya metodini qo'llashning samaradorligi o'qituvchining dars rejasini puxta tuzishi, mavzu mazmunini yoritishning eng izchil yo'lini tanlashi, ko'rgazmali vositalar, tarqatma va didaktik materiallarni to'plashi, bayonning tegishli darajadagi ko'tarinki ruhini ta'minlashni taqoza etadi. Hikoya metodining tarkibiga quyidagi metodik uslublar kiradi:

2.2.Munozara (muhokama) usuli

Munozara-faol ta'lim usuli bo'lib, муҳокама, маълум муаммо бўйича фикр almashuv ko'rinishida o'tadi.

Munozara barcha vazifalarni bajaradi. Mazkur usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanamiz:

- yangi bilimlarni shakllantirish;
- talabalarda u yoki bu savollarni chuqur o`ylab ko`rish, tub ma`nosini tushunib etishga motivatsiyani ta`minlash;
- talabalarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib etishni o`rgatish;
- kommunikativ ko`nikmalarni shakllantirish;
- erkin munozaralarga kirishib ketishni ta`minlash;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- mantiqan fikrlashga o`rgatish va h.k.

Ko`p hollarda amaliy mashg`ulotlari orasida o`qituvchi monologlari bilan bo`linadigan talabalar monologlari shaklida o`tadi, qolgan talabalar esa shu paytda zerikib o`tiradilar. Shuning uchun darsda «munozara usuli»ni qo`llash barcha talabalarning faolligini oshirib, zerikishlariga yo`l qo`ymaydi.

«Munozara»ni o`tkazish

1. O`qituvchi munozara mavzusini tanlaydi va talabalarni taklif qiladi.
2. O`qituvchi talabalarga «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o`tkazish tartibini belgilaydi, talabalar guruhlariga bo`linadi.
3. «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g`oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlanadi. Bu bosqichda guruh a`zolarining har biri o`z fikrini bildirishlariga sharoit yaratiladi.
4. Talaba (etakchi) ikkinchi bosqichga o`tishdan avval qisqa tanaffus e`lon qiladi. Ikkinchi bosqichda bildirilgan fikr va g`oyalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishga o`tiladi.
5. Tahlil orqali qo`yilgan vazifani eng maqbul echimini topishga harkat qilinadi.

Talabalar fikrlari qanday bo`lishidan qat`iy nazar, unga munosabat bildirishga shoshilmaslik munozara yuritishning qat`iy qoidasi bo`lib hisoblanadi. O`qituvchi fikrlarining bildirilishiga ham yo`l qo`ymasligi lozim.

Odobli xulq bilan fikrlarning asosliligini, aytilgan yoki qo'llab-quvvatlangan fikrning to'g'riligini oydinlashtirib, ularda g'oyaning mantiqiy oqibati to'g'risida fikrlashga qiziqish uyg'otish zarur.

2.3. Didaktik o'yin texnologiyalari. Matbuot konferentsiyasi talim texnologiyasi

Biologiya darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi.

Didaktik o'yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferentsiyalar va uyin mashklar kabi turlari bor. Mazkur metodik ko'rsatmada biologiya darslarida matbuot-konferentsiyasidan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Matbuot konferentsiyasi sinfdagi barcha o'quvchilarning o'quv - bilish faoliyati faol bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'qituvchining matbuot konferentsiyasi darsiga tayyorgarligi bir muncha murakkabroq. O'qituvchi matbuot konferentsiyasini o'tkazishdan bir hafta avval sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'ladi. Ularning taxminan 30% parrandalar seleksiyasi sohasida ishlayotgan olimlar va parrandachilik fabrikalarining mutaxassislari, qolganlari respublikamizda nashr qilinadigan gazeta va jurnallarning muxbirlari rolini bajaradilar.

Gazetalardan respublikamizda nashr qilinadigan «O'zbekiston ovozi», «Qishloq haqiqati», «Xalq so'zi», «Toshkent oqshomi», «Turkiston», «Toshkent haqiqati», jurnallardan «Fan va turmush», «Qishloq xo'jaligi», «Saodat», «Sihat-salomatlik»ni olish mumkin.

Shundan so'ng, har qaysi gazeta va jurnal muxbirlarining matbuot konferentsiyasida beradigan savollari o'quvchilar yordamida tuziladi. Bu

savollar muhokama qilinayotgan muammoni har tomonlama qamrab olishi kerak.

Savollar mazmuni muhokamadan o'tgandan so'ng, gazeta va jurnal muxbirlari va selektsiyachi olimlar roli o'quvchilarning xohishiga ko'ra taqsimlanadi.

O'qituvchi parrandachilik selektsiyasi bilan shug'ullanadigan olimlar va mutaxassislar rolini bajaradigan o'quvchilar bilan alohida tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Ularga qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va savollarga javoblar topish haqida ko'rsatma beradi. Savollarga beriladigan javoblar qisqa, aniq, ilmiy jihatdan asoslangan, mahalliy materiallarni qamrab olgan bo'lishi lozim. O'qituvchi ana shu javoblarni oldin ko'zdan kechirishi, agar ularda juz'iy kamchiliklar bo'lsa, ularni to'g'rilashi, to'ldirishi kerakligini o'quvchilarga topshiradi.

Muxbirlar rolini bajaradigan o'quvchilar ham savollarga javoblar topishi olimlar va mutaxassislar bilan muloqotga kirishi uchun etarli darajadagi bilimlarga ega bo'lishini ta'minlanishi kerak.

Mazkur darsga hamma o'quvchilar ular qaysi rolni bajarishidan qat'iy nazar qizg'in tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Dars mavzusi: Parrandachilik

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarni parranda zotlarining xilma-xilligi, parrandachilik sanoati va uning ahamiyati bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni parranda zotlarining xilma-xilligi, parrandachilik sanoatining ahamiyati bilan tanishtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, ekologik va iqtisodiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarni qushlarning xilma-xilligi va ahamiyati haqidagi bilimlari, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Parranda zotlarining rasmlari, tulumlari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Didaktik o'yin texnologiyasi (matbuot konferentsiyasi).

Darsning borishi:

- I. Tashkiliy qism.
- II. O`quvchilarni darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Matbuot konferentsiyasi darsi o`qituvchining kirish so`zi bilan ochiladi. U kirish so`zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan o`quvchilarni tanishtirib, bugungi matbuot konferentsiyasi qishloq xo`jaligining muhim tarmog`i parrandachilikka bag`ishlanishini, konferentsiyada ishtirok etayotgan seleksioner olimlar, parrandachilik sohasida tadbirkorlik bilan shug`ullanayotgan mutaxassislar, gazeta va jurnallarning muxbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

Olimlar va mutaxassislar bu savollarga javob beradilar.

Masalan, olimlar Respublikamizda tuxum yo`nalishidagi qanday zotlar boqiladi? degan savolga quyidagicha javob berishlari mumkin:

Respublikamizda tuxum yo`nalishidagi parrandalardan rus oq tovug`i zoti boqiladi. Bu zot Sankt-Peterburg parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutlari oq legorn tovuqlariga avstralgorn zotining qonini quyish orqali chiqarilgan. Qon quyish jo`ja ochish maqsaddida to`planadigan tuxumlarni yig`ishdan 2,5 oy oldin boshlangan. Olingan duragaylarga ham bir kg massa hisobiga 2,5 ml dan avstrolegorn zoti qoni quyilgan. Bundan tashqari, har yili zotdor xo`rozlar va tovuqlar tanlanib, saralanishi natijasida sarmahsul va hayotchanligi yuqori bo`lgan mazkur zot keltirib chiqariladi. Bu zotga mansub tovuq va xo`rozlarning o`rtacha vazni 3,7 kg,

Bundan tashqari tovuqlari 5-6 oyda tuxumga kiradi, bitta tuxumning vazni 69 g. bo`lib, tovuqlar yiliga 200-300 ta tuxum beradi.

Tuxum-go`sht yo`nalishidagi tovuq zotlariga zagorsk, pervomaysk misol bo`ladi. Ular orlov tovug`ini, oq viandot va rod ayland zotlari bilan qayta-qayta chatishtirish orqali chiqarilgan. Uzoq vaqt davomida, tanlash va saralash natijasida sarmahsul va yuqori sifatli go`sht beradigan zot keltirib chiqariladi. Bu zotga mansub tovuqlar va xo`rozlarning o`rtacha vazni – 2,5 - 4 kg, bitta

tuxumning vazni - 69 g bo`lib, yiliga 250 tagacha tuxum beradi. Bu zotning afzalligi shundaki, bizning respublikamizda ko`paytirish va boqish mumkin.


Shu tariqa olimlar muxbirlarning savollariga asosli javob beradilar.

- III. Yangi mavzuni qayta ishlash. O`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda mavzuning asosiy mazmunini qayta ishlab chiqib, ularning umumiy xulosalar chiqarishiga yordam beradi.
- IV. O`quvchilarni rag`batlantirish va baholash. Darsda faol ishtirok etgan “olimlar”, “mutaxassislar” va “muxbirlar” qayd etiladi va rag`batlantiriladi.
- V. Darsni umumiy yakunlash.
- VI.** *Uyga vazifa berish.*

Matbuot konferentsiyasini o`tkazish

Matbuot konferentsiyasida muxbirlar rolini bajarayotgan o`quvchilar olimlar va mutaxassislarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

B/BX/B JADVALI




B/BX/B JADVALI

	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Respublikamizda parrandachilikning qanday tarmoqlari mavjud?			
2. Respublikamizda tovuqlarning qanday zotlari boqiladi?			
3. Respublikamizda tuxum yo`nalishidagi qanday zotlar boqiladi?			
4. Parrandachilikning qanday ahamiyati bor?			
5. Parrandachilik fabrikalarida parrandalar qanday oziqlantiriladi?			
6. Tovuqlarning tuxum qo`yishi kun uzunligiga bog`liqmi? Parrandachilik fabrikalarida bu muammolarni hal etish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?			
7. Jo`ja ocherish jarayoni qanday amalga oshadi?			
8. Parrandachilikni rivojlantirishda nasldor parrandalar keltirib chiqarish muhim rol` o`ynaydi. Ularning jo`jalari qaerlarda ochiladi?			
9. Parrandachilikda tovuqlar bilan bir qatorda o`rdaklar ham boqiladi. Ularning qanday zotlari bor?			
10. Xonaki g`ozlar va kurkalarining qanday zotlari boqiladi va ulardan qanday mahsulotlar olinadi?			


Pinbord texnikasi

Pinbord texnikasi


(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska)
muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruplashni
amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi
pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi



O`qituvchi taklif etilgan muammo bo`yicha o`z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so`raydi. To`g`ridan-to`g`ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag`batlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muvokama qiladilar, bapulaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so`zdan ko`p bo`lmagan) sifatida alohida qog`ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.



Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo`lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo`lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo`lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog`oz varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
- 5) ularning o`zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko`rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

II. 2. Guruh ishlarini baholash jadvali.

Guruh	Javobning to'liq va aniqligi (1,0)	Ma'lumotlarni ng aniq- ravshanligi (0,5)	Guruhning har bir a'zosining faolligi (0,5)	Jami ballar	Baho
1					
2					
3					

Har bir guruh boshqa guruhning ball mezonlari bo'yicha baholaydi. Guruh olgan baho guruhdagi har bir a'zoning bahosi hisoblanadi:

Reyting bo'yicha har bir ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarda olish mumkin bo'lgan ballar:


1,5 – 2 ball – «a'lo»

1,0 – 1,4 – «yaxshi»

0,5 – 0,9 – «qoniqarli»

0 – 0,4 ball – «qoniqarsiz»

«Nilufar guli» chizmasi



«Nilufar guli» chizmasin tuzish qoydalari

- *Amaliy nuqtai nazardan barcha g`oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.*
- *Sizga katta qog`oz varag`i zarur bo`ladi. Doimo o`zingiz mushohadalarinigiz natijasini bir varaq qog`ozda ko`rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.*

«Nilufar guli» chizmasi Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan interfaol usullar

A – «TARMOQLAR»

B – «3x4» metodi

C – «BLIS-O'YIN»

D – «INTYERVYU»

F – «IYERARXIYa»

Y – «BUMYERANG»

Z – «O'QITUVChI ShAXSI»

G – «MULOQOT»

H – «BOShQARUV»

	B	

	Z	

	C	

	D	

B	Z	C
D	A	F
G	H	Y

	F	

	G	

	H	

	Y	

Xulosalar

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

1 Biologiya fanin wqitishda kwrqazmali metodlardan foydalanish maqsadi wquvchilarning atrof-muhitga ta'siri tobora kuchayib, ekologik tanglik xavf solayotgan davrda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyatini kuchaytirish, ularning ekologik ongini oshirish va ekologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

2. Kurs ishida biologiya fani bwyicha har bir mavzuni wqitishning yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berildi.

3. Biologiya fanidan har bir mavzu bwyicha komandada wqitish, modulli wqitish, muammoli suhbat va turli didaktik wyinli texnologiyalar: sahnalashtirilgan syujetli-rolli wyinlar, matbuot konferentsiyasi, ilmiy konferentsiya, komandalar musobaqasi kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning stsenariylari ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan wtkazildi.

4. Biologiya fanin wqitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan tajriba guruhlarida barcha mavzular bwyicha wquvchilarning wzlashtirish kwrsatkichlari ancha yuqori bwldi.

5. Wquvchilar wrtasida wtkazilgan anketa swrovlari biologiya fanida ekologik tushunchalarni shakllantirish, Respublikamizda yuz bergan ekologik vaziyatning sabablari va uning oqibatlarini chuqurroq anglab olishda wquvchilarga yordam berishini kwrsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar rwyxati

1. Karimov I. A. Wzbekston XXI asr bwsag`asida. xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «Wzbekiston», 1997. 110-136 b.
2. Abdullaev O., Toshmatov Z. Wzbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. –T.: «Fan». 1992, -45 b.
3. Avazov. Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf wquvchilarini wlkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash. diss. na sois. uchen. step. kand. bio. nauk –T.: 1993, -161 b.
4. Alimov T. A., Rafiqov A. A. Ekologik xatolik saboqlari. –T.: Wzbekiston. 1991, -70 b.
5. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. –T.: «Wqituvchi» 1991. -256 b.
6. Grigoryants A. G., Abdullaeva T. Kichik yoshdagi wquvchilarga ekologik tarbiya berish // (Sovet maktabi).-T.: 1989. №7. 43-50 b
7. Ismailov A., Axadov. R. Ekologik talim–tarbiya. –T.: «Wqituvchi». 1997. - 120 b.
8. Ywldoshev J. G. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «Wqituvchi». 2004.- 100 b.
9. Kungurov Ch. Dars jarayonida ekologik muammolarni wrganish. (Sovet maktabi) –T.: 1989. -№5. 34-36 b
10. Mavlonov O., Tolipova J. Zoologiyani wqitish metodikasi –T.: «Tibbiyot». 2004. -119 b.
11. Otaboev Sh., Sattarov E., Zaripov E, Saparova G. Maktab yoshigacha bulgan farzandlarimizni ekologik ongini, fikrlash va tafakkurini shakllantirish muammolari. //«Bolalar shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari» II-Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar. –T.: 2008. 331-333 b.
12. Saparbaev J, Saparova G. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanini wrganish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari.

- //Wzbekiston Respublikasi. mustaqilligining 15 yilligiga bag`ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: WzMU, 2006. - 213 b.
13. Tolipova J.O. Biologiyani wqitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Pedagogika oliy wquv yurti talabalari uchun wquv qwllanma. I-II-qism. –T.: TDPU. 2004. 75 -101 b.
 14. Tolipova J.O., G`ofurov A.T. Umumiy biologiya darslarida EHM dan foydalanish. Umumiy biologiyani wqitishning norasmiy usul va shakllari. - T: 1992. 63-73 b.
 15. Ergashev A., Ergashev T. A. Biosfera va tabiatni muhofaza qilish asoslari – T.: 2005. 457 b.
 16. Wzbekiston Respublikasi «Qizil kitobi» -T: Chinor. Enk. Tom 1,2, 2006.
 17. www.tdru.uz
 18. www.chemistry.ru
 19. www.labchem.ru